



SAMIMIY UCHRASHUVLARDA O‘ZBEKISTON VA AQSH O‘RTASIDAGI KENG QAMROVLI MUNOSABATLARNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi tadbirlarida ishtirok etish uchun 20-24-sentabr kunlari amaliy tashrif bilan Nyu-York shahrida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 24-sentyabr kuni AQSH Kongressi a‘zosi, Vakillar palatasidagi “O‘zbekiston bilan hamkorlik bo‘yicha kokus” raisi Trent Kelli va Missisipi shtati Milliy gvardiyasi qo‘mondoni, general-mayor Bobbi Jinni qabul qildi.

O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish, shu jumladan, parlamentlararo muloqotni mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Parlamentlararo muloqot va almashinuvlar jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Kongress Senati va Vakillar palatasi a‘zolari O‘zbekistonga muntazam tashrif buyurmoqda. “O‘zbekiston bilan hamkorlik bo‘yicha kokus” faol ishlamoqda,

uning tarkibi kengaymoqda. Kongressda har yili ikki mamlakat parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilayotgan O‘zbekiston kunlari o‘tkazib kelinmoqda.

AQSHning Missisipi shtati bilan savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarga yuksak baho berildi.

O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada kengaytirish, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda Kongressning qo‘llab-quvvatlovi muhim ekani ta’kidlandi.

Subhat yakunida yaqinda Kongress delegatsiyasi va Missisipi shtati ishbilarmonlarining O‘zbekistonga tashriflarini tashkil etishga kelishib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSHga amaliy tashrifini yakunlar ekan, an‘anaga ko‘ra, ushbu mamlakatda mehnat va istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz, shuningdek, AQSHning nufuzli universitetlarida tahsil olayotgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiatlari bilan uchrashdi.

Norasmiy muhitda o‘tgan samimiy suhbat davomida Yangi O‘zbekistondagi islohotlarni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar, xususan, ularni faol ilgari surishda vatandoshlar va ularni birlashtiruvchi tashkilotlarning ishtiroki muhokama qilindi.

Uchrashuvda muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan vatandoshlar va yoshlar o‘rtasida muloqot

maydonini yaratishga qaratilgan “Vatan-doshlarning xalqaro biznes marafoni”ga start berildi.

Ishirokchilar O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy va ta’lim aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash, milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalariga AQSHning ilg‘or texnologiyalarini joriy etish, tibbiyot, transport va logistika sohalarida innovatsiyalarni ilgari surish, mamlakatimizda marketpleyslarni rivojlantirish bo‘yicha o‘z takliflarini bildirdilar.

Davlatimiz rahbari yig‘ilganlarga Vatanimiz taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissassi uchun minnatdorlik bildirib, aytilgan barcha taklif va tashabbuslar mamlakatimiz vazirlik

va idoralari tomonidan puxta o‘rganib chiqilishi, eng istiqbolilari esa amaliyotga tatbiq etilishini ta’kidladi.

O‘zbekiston Prezidenti AQSHda “El-yurt umidi” stipendiatlari soni 500 nafardan oshganiga alohida e’tibor qaratdi. Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim va tajribasini ona yurtda qo‘llash uchun imkoniyat yaratish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini ta’kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev talabalarga o‘qishda va kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilab, davlatimiz yoshlarning tashabbuslariga doimo ochiqligi va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanligini ta’kidladi.

O‘z navbatida, uchrashuv ishtirokchilari O‘zbekiston yetakchisiga xorijdagi vatandoshlar va yoshlarga ko‘rsatilayotgan e’tibor, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar uchun minnatdorlik bildirib, Vatanimiz ravnaqiga yanada ko‘proq hissa qo‘shishga tayyorligini bildirdilar.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlariga amaliy tashrif yakunlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

Buyuk o‘zbek yo‘li

O‘ZBEKISTON — BMT:

KO‘P TOMONLAMA DIPLOMATIYA YANGI BOSQICHDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 23-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasida nutq so‘zlad. Bu — davlatimiz rahbarining 2017-yildan buyon BMT bosh minbarida beshinchi marta nutq so‘zlashi. Ayni voqea O‘zbekiston so‘nggi 8 yilda BMTning eng faol a‘zolaridan biriga aylangani va u bilan hamkorligimiz mutlaqo yangi darajaga ko‘tarilganini yaqqol tasdiqlaydi.

Yangi davr: BMT kelajagiga yangicha yondashuv zarurati

Joriy yil O‘zbekistonning BMTga a‘zoligiga 33 yil, ushbu nufuzli xalqaro tashkilotga asos solinganiga esa roppa-rosa 80 yil bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin bunday halokatli qirg‘inbarotlarga kelgusida yo‘l qo‘ymaslik uchun tuzilgan va hozir 193 davlatni birlashtirgan tashkilot insoniyatning ulkan yutug‘i bo‘lganini orada o‘tgan sakson yillik murakkab va mas’uliyatli davr yaqqol tasdiqlab turibdi.



Bu haqda BMT Bosh Assambleyasi 80-yubiley sessiyasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali majlisida alohida so‘z yuritildi. Binobarin, bundan 80 yil oldin insoniyatning bitta avlodi boshiga ikkita jahon urushi azobini tortish qismati tushdi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushida ko‘plab mamlakatlar vayronaga aylandi, 70 milliondan ortiq inson qurbon bo‘ldi.

Shu ma’noda, aslida ham, 1945-yil 26-iyunda BMT nizomi imzolangani shunchaki rasmiyatchilik emas, balki insoniyat urushining o‘sha qora kunlaridan saboq chiqarganining tom ma’nodagi tasdiq‘i bo‘ldi.

O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanuvchi diplomatiya sohasida, birinchidan, hamkor davlatlar bilan ikki tomonlama diplomatiya, ikkinchidan, mintaqamizdagi qo‘shni mamlakatlar bilan mintaqaviy diplomatiya, uchinchidan, asosiy xalqaro tashkilotlar bilan ko‘p tomonlama diplomatiya doirasida o‘zaro manfaatli hamkorlikka katta ahamiyat qaratadi. Davlatimiz BMT nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro shartnomalardagi maqsad va prinsiplarga sodiq bo‘lib, zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarib kelmoqda.

Davomi 3-betda

AYOL QADRINI ULUG‘LASH

BARQAROR TARAQQIYOT, MA’RIFATLI JAMIYAT VA BUYUK KELAJAK KAFOLATIDIR

Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan, u jamiyat taraqqiyotining asosiy mezon sifatida qabul qilingan davlat. Bu g‘oya qonuniy hujjatlarda emas, ko‘z o‘ngimizda, har bir insonning hayotida o‘z aksini topmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlarga munosabat, ularning hayotini yaxshilashga qaratilgan islohotlar bugungi taraqqiyot strategiyasining bosh maqsadlaridan biriga aylandi.

Bu Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasidagi nutqida yana bir bor yaqqol namoyon bo‘ldi. Ushbu ma’ruza dunyo hamjamiyatida, shu bilan birga, yurtimizda ham ayollarning huquqlari, imkoniyatlari va farovon kelajagiga oid

masalalar davlat siyosatida qay darajada ustuvor o‘rin tutayotganini yaqqol ko‘rsatdi. Davlatimiz rahbarining nutqi mukammal diplomatik bayonot o‘laroq, insonparvarlik, adolat va fidoyilik ruhidagi yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi yuzini

va qat’iy pozitsiyasini aks ettirdi. Unda nafaqat global muammolar tilga olindi, balki ularni hal etish bo‘yicha aniq strategiya, amaliy yechimlar ham taklif etildi.

Bugungi zamonaviy, tez o‘zgaruvchan dunyoda xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirish davlat, jamiyat uchun hayotiy ahamiyat kasb etadi. Boisi, ayol faol bo‘lsa, jamiyat faol bo‘ladi. Ayol yetakchi bo‘lsa, millat taraqqiy etadi. Ayol baxtli bo‘lsa, oila barqaror, mustahkam bo‘ladi. Shu nuqtayi nazaridan, mamlakatimizda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar yil sayin kengayib, mazmunan boyib borayotgani yanada ahamiyatli.

Davomi 2-betda

HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLOVCHI SAMARALI MUZOKARALAR

Yurtimizda kuz faslining ajib tarovati kezib yuribdi. Faslar gavhari kuz – yil davomida qilingan mehnat samarasini, dalayu tomorqalar, bog‘larda yetishtirilgan meva-sabzavotlarni yig‘ib-teradigan, xirmon uyib, qishga hozirlik ko‘radigan mavsum. Xalqimiz bu fasni majoziy ma’noda ham natijalar mavsumi sifatida idrok etadi.

Yangi O‘zbekistonimizda barcha jabha, soha va tarmoqlarda bu yil tom ma’noda yuksalish yili bo‘ldi. Uzoqqa bormaylik, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining AQSHga amaliy tashrifi, BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasidagi tadbirlar jahon hamjamiyatining diqqat markazida bo‘lib turibdi. Aytish

joizki, davlatimiz rahbarining oliy darajadagi bu tashrifi ikki mamlakat o‘rtasida strategik sheriklik sari yangi qadam bo‘ldi.

Prezidentimizning AQSHga amaliy tashrifi nafaqat ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar tarixida, balki Markaziy Osiyo mintaqasining xalqaro siyosatdagi o‘rmini belgilab beradigan muhim voqea sifatida qayd etildi.

Bu tashrif rasmiy formatdagi diplomatik safardan ancha keng qamrovli. Uning zamirida katta siyosiy iroda, mustahkam iqtisodiy rejalar va O‘zbekistonning global jarayonlardagi faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan strategik yondashuv mujassam.

Davomi 2-betda

AYOL QADRINI ULUG‘LASH

BARQAROR TARAQQIYOT, MA’RIFATLI JAMIYAT VA BUYUK KELAJAK KAFOLATIDIR

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz nutqida alohida ta’kidlanganidek, “Ustuvor maqsadimiz — har bir oilaning, har bir insonning hayotini yaxshilash, inson qadrini yuksaltirish”. Bu maqsad yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlarning falsafiy va amaliy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu fikr, shubhasiz, jamiyat hayotining har bir sohasida o‘z ifodasini topayotgan hayotiy voqelikdir. Aynan shu tamoyil asosida davlatimiz rahbari gender tenglik, xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirishni milliy taraqqiyot modelida alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilamoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirish tashabbusi ham jahonda gender siyosatini yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan ulkan qadamdир. Bu mamlakatimiz, qolaversa, butun mintaqa xotin-qizlari uchun yangi imkoniyatlar eishigini ochuvchi, ularning ovoziini xalqaro hamjamiyatga yetkazuvchi muhim maydonga aylanishi shubhasiz. Demak, davlatimiz rahbarining ushbu tashabbusi orqali O‘zbekiston tashqi maydonda ham inson qadrini ulug‘lash g‘oyasini ilgari surmoqda.

So‘nggi yillarda ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan qizlar uchun davlat grantlari soni ikki baravar oshirilib, to‘rt mingga yetkazilgani natijasida minglab qizlar uchun ilm eishiklari ochildi. Bu orqali 3816 qiz oliy ta’limga qabul qilindi.

Yana bir muhim tashabbus — besh yillik ish stajiga ega, ammo oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan xotin-qizlar uchun kvotalar soni besh baravar oshirilib, 2500 taga yetkazildi. Mazkur imtiyoz orqali 2 mingdan ortiq xotin-qiz o‘z hayotida yangi sahifa ochmoqda.

So‘nggi besh yil davomida belgilangan imtiyozga muvofiq, 13 mingga yaqin xotin-qiz davlat granti asosida oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilindi.

2022-yildan buyon davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari davlat byudjetidan qoplab berilishi yo‘lga qo‘yildi. Bu maqsad uchun 2022-2025-yillar oralig‘ida 333,8 milliard so‘m davlat byudjetidan mablag‘ yo‘naltilirdi. Bundan tashqari, 4523 talaba xotin-qizga 57



Zulayho MAHKAMOVA,
Bosh vazir o‘rinbosari,
Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi

milliard so‘mdan ortiq ta’lim krediti ajratilgani O‘zbekistonda xotin-qizlar ta’limiga nechog‘liq katta e‘tibor ko‘rsatilyotganini anglatadi. Mazkur imkoniyat va imtiyozlar natijasida oliy ta’limdagi talabalar orasida xotin-qizlar ulushi 53 foizga yetdi. 2017-yilda bu ko‘rsatkich 39 foiz edi.

“Bir million dasturchi” loyihasida qatnashganlar orasida qizlar salmog‘i 51 foizni tashkil qilishi xotin-qizlar endilikda nafaqat an’anaviy, balki raqamli texnologiya, innovatsiya va axborot texnologiyalari sohalarida ham o‘z o‘rniga ega bo‘layotganini anglatadi. Ilg‘or sohalarda ayollarimiz dunyo miqyosida raqobatbardosh kadrlarga aylanmoqda. Bunday qizlarimiz uchun Zulfiya nomidagi davlat mukofotining axborot texnologiyalari yo‘nalishida joriy etilishi ham katta rag‘bat va ishonchdir.

Siyosiy sohada ham ayollarning o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Milliy kadrlar zaxirasida ayollar ulushi 32 foizga yetgan bo‘lsa, maslahat kengashlari soni 155 tadan 4 mingtagacha oshirildi. Korxona, muassasa va tashkilotlarda xotin-qizlar masalalari bilan ishlovchi mas‘ullar soni 5 mingdan oshdi. Bularning zahirida ezigu maqsad mujassam — jamiyatda xotin-qizlar manfaatini hamisha ustuvor qo‘yish, har bir sohada teng sharoit yaratish.

Joriy yilda xotin-qizlar bandligini ta’minlash, iqtisodiy hayotga faol jalb etish borasida tizimli ishlar qilindi. Respublika bo‘yicha 1,9 million

ayol daromadli mehnatga jalb etildi. Ulardan 491,2 ming nafari doimiy ish o‘rinlariga joylashtirildi, 262,5 ming nafari esa kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi.

2025-yilning o‘tgan davrida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 204 ming xotin-qizga 15 trillion so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Shundan 105 mingga oilaviy biznesni yo‘lga qo‘ydi. Qishloq xo‘jaligi va uy mehnatiga ixtisoslashgan loyihalar orqali minglab xonadonlarda issixxona, parrandachilik va asalarichilik yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, har bir ayolning huquqiy, psixologik va kasbiy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash maqsadida tuman va shaharlarda 197 ta “Oila va xotin-qizlar maskani” tashkil etildi. Ularda 80 mingdan ortiq xizmat ko‘rsatildi, nikohlanuvchi 90 mingga yaqin yosh oilaviy hayot saboqlariga o‘qitildi. Quvonarlisi, bu ijobiy ko‘rsatkichlar o‘sib bormoqda.

Ushbu amaliy ishlar xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi, bilim va salohiyati hamda jamiyatdagi teng ishtirokini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizda barqaror taraqqiyot va ijtimoiy adolatlari qaror topirishda muhim poydevor vazifasini o‘taydi.

Prezidentimiz xalqaro yuksak minbarda turib so‘zlar ekan, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiyning ma’naviy merosini qayta jonlantirish tashabbusi alohida ahamiyatga ega ekan, ma’rifatli jamiyat faqat erkaklar bilan emas, ayollar, onalar bilan barpo etilishi haqidagi fikrini butun dunyo hamjamiyati katta hayajon va qiziqish bilan qabul qildi. Chindan ham ayol ma’rifatli bo‘lsa, farzand olimu komil bo‘ladi. Demak, ma’rifat ayol qadrini yuksaltirishning eng muhim tayanchidir.

“Bugun yangi O‘zbekistonning oltin fondi, Uchinchi Renessans bunyodkorlari sanalgan yoshlar tarbiyasi bo‘ladimi, tinchlik va bag‘rikenglik masalalari bo‘ladimi — barida xotin-qizlarga, ularning ilmiy-ijodiy salohiyatiga yetakchi kuch sifatida qaralmoqda.

Prezidentimizning “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta’sis etish va harakatning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish tashabbusi ham bevosita mamlakatimiz ayollari, onalarning yuragidagi orzu-umidlarga hamohangdir. Chunki tinchlik, avvalo, ona qalbidagi mangu istakdir. Bugun biz — ustozlar, murabbiylar va onalar yoshlar ongida bag‘rikenglik, insonparvarlik va hamjihatlik tuyg‘ularini mustahkamlashda faol ishtirok etyapmiz. Bunday ezigu maqsadlar uchun yaratilyotgan davlat siyosati bizga kuch, harakat va rag‘bat bag‘ishlaydi.

Bugun mamlakatimiz xalqaro maydonda ham ayollar huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi, imkoniyatlar eishigini ochuvchi faol pozitsiyani egallab bormoqda. Zotan, ayol qadrini ulug‘lash barqaror taraqqiyot, ma’rifatli jamiyat va buyuk kelajak kafolatidir.

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida ishtirok etib, dunyo hamjamiyati oldida nutq so‘zladı. Unda xalqaro xavfsizlik, barqaror rivojlanish, iqlim o‘zgarishi va mintaqaviy hamkorlik masalalariga to‘xtalib, O‘zbekistonning pozitsiyasini ochiq va ravshan ifoda etdi. Bu nutq ko‘p jihatdan O‘zbekistonning yaqin kelajakda qanday tashqi siyosat yuritishini belgilab beradigan dasturiy hujjatga aylandi.

Prezidentimiz yurtimizda kambag‘allikni qisqartirish va aholini ish bilan ta’minlash masalalariga alohida to‘xtalib, “Biz Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang holda, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy Yangi O‘zbekistonnı barpo etish siyosatini olib bormoqdamiz. Buning uchun ortga qaytmas islohotlarimizni izchil davom etiryapmiz.

Ustuvor maqsadimiz — mamlakatimizda yashayotgan har bir oilaning, har bir fuqaroning hayotini tubdan o‘zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir”, dedi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishilgani qayd etildi. Insonga insondek yashash sharoitini taqdim etuvchi islohotlar samarasini aks ettiruvchi ushbu ma’lumotlarning shunday nufuzli minbarda baralla yangrashi zamirida, albatta, mustahkam asos bor.

Shu o‘rinda 17-18-sentabr kunlari Namangan shahrida bo‘lib o‘tgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumini eslab o‘tish o‘rinli. Nufuzli xalqaro ekspertlar ishtirokida uchinchi bor tashkil etilgan mazkur yirik anjumanda davlatimiz rahbari ishtirok etib, yurtimizda yangi tashabbus va tajribalarni sinovdan o‘tkazib, dunyodagi ijobiy yutuqlarni o‘rganib, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha Yangi O‘zbekiston modeli yaratilgani xususida to‘xtalgan edi.

Aynipaytda mamlakatimizda yettita ustuvor yo‘nalishni qamrab olgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi umummilliy harakat



Ra'no TURDIBOYEVA,
Kambag'allikni qisqartirish va
bandlik vaziri o‘rinbosari,
yuridik fanlar nomzodi

sifatida izchil amalga oshirilmoqda. Ta’lim va ilm-fan sohasini o‘zgartirish, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalarini barpo etish, “yashil” energetika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik biznesni har tomonlama rivojlanirish orqali minglab yangi ish o‘rinlari ochilmoqda.

Anjumanda ishtirok etgan Islom taraqqiyot banki guruhi raisi Muhammad Al-Jasser e’tirofini so‘zimiz isboti sifatida keltiramiz. “O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allik taqdir emas, uni dadil rahbarlik, intizomli ijro va innovatsion hamkorlik bilan yengish mumkin. Islom taraqqiyot banki nomidan O‘zbekiston va barcha a’zo davlatlarimiz bilan birga bu yo‘ldan borishga sodiqdligimizni yana bir bor tasdiqlayman”, deya ta’kidlagan edi xalqaro ekspert.

Davlatimiz rahbarining AQSHdagi yetakchi korporatsiyalar va investitsiya tashkilotlari rahbarlari bilan muzokaralari O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, aviatsiya sohasida 8 milliard dollarlik kelishuv doirasida “Uzbekistan Airways” kompaniyasi tomonidan 22 ta Boeing 787 Dreamliner

MEHNATLARI E‘TIROF ETILGAN OLIM

Olimlar – tun-u kun izlanishdan, mehnatdan to‘xtamaydigan, ilm yo‘lidagi mashaqqatlarni pisand qilmaydigan insonlar. Ularning zahmatli mehnatlari samo sirlarining bizni ogoh qiladi, yer qa‘riga berkingan tarixini jonlantiradi. Ana shunday olimlardan biri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, akademik Ahmadali Asqarov.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko‘ra mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlanirish, yurtimiz boy tarixini o‘rganish va targ‘ib etishga qo‘shgan katta hisssasi, iqtidorli olimlarni tayyorlashdagi ibratli faoliyati uchun Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, akademik Ahmadali Asqarov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Mazkur mukofotni olim tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlab Fanlar akademiyasida o‘tkazilgan xalqaro-ilmiy konferensiyada Prezident maslahatchisi Xayriddin Sultonov tantanalı topshirdi.

Shundan so‘ng akademik Asqarovning arxeologiya fanidagi beqiyos xizmatlari, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixining o‘rganilishiga qo‘shgan hisssasi hamkasblari

hamda shogirdlari tomonidan alohida e’tirof etildi.

— Ahmadali Asqarov nafaqat shogirdlariga, balki tarixga qiziqqanlar, talabalar, magistrarga bilim berib, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata oladi, — deydi olimning shogirdi Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori Nigora Egamberdiyeva. — Ustoz O‘zbekiston tarixi faniga ham katta yangiliklar kiritgan. Shulardan eng muhimi O‘zbekiston davlatchiligi tarixi davrini 4 ming yillik deb belgilab berdi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekiston tarixi fanida eng katta tub burilish hisoblanadi. Ahmadali Asqarov butun ilmiy faoliyati davomida akademik Y.G‘.G‘ulomov arxeologik ilmiy maktabining izchil davomchisi sifatida arxeolog kadrlar tayyorlash ishiga alohida e’tibor berib keldi.

Brifing

Bu yilgi paxta yig‘im-terimi mavsumida bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo‘l qo‘yilmaydimi, terimchilar uchun sharoit yetarli? Mamlakatimizda 25-sentabrdan ana shu holatlarni o‘rganish bo‘yicha milliy monitoring boshlandi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasida tashkil etilgan brifingda milliy monitoringni tashkil etish borasidagi ishlar to‘g‘risida ma’lumot berildi.

Xalq manfaatlarini ta’minlash va inson qadrini ulug‘lash maqsadida amalga oshirilyotgan tizimli islohotlar natijasida ijtimoiy mehnat munosabatlari sohasida ham salmoqli yutuqlarga erishildi. Xususan, davlatimiz rahbarining qat’iy siyosiy irodasi tufayli mamlakatimizda bolalar mehnati va majburiy mehnatga butunlay barham berildi.

Shu maqsadda qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, mavjudlari takomillashirildi. Bu kabi sa’y-harakatlar natijasi o‘laroq Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 2021-yilgi paxta yig‘im-terimi mavsumida o‘tkazilgan “Uchinchi tomon monitoringi” natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda bolalar mehnati va majburiy mehnatdan umuman foydalanilmagani e’tirof etildi. 2022-

O‘ZBEKISTONDA MAJBURIY MEHNAT VA BOLALAR MEHNATI BUTUNLAY BARHAM TOPGAN

yil 10-martda esa “Cotton Campaign” xalqaro koalitsiyasi o‘zbek paxtasiga global boykot bekor qilinganini e’lon qildi. Bu O‘zbekiston uchun katta yutuq bo‘ldi.

Bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik borasida O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan ham tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, bir necha yildirki, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida paxta yig‘im-terimi davrida bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik hamda terimchilar uchun yaratilgan sharoitlarni o‘rganish yuzasidan milliy monitoring o‘tkazib kelinmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad — paxta yig‘im-terimida voyaga yetmaganlar, o‘quvchi va talabalar, byudjet va byudjetdan tashqari tashkilotlar xodimlarining majburiy mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Shuningdek, paxta yig‘im-terimi mavsumida terimchilar uchun yetarli yashash, dam olish va mehnat sharoiti yaratilganini baholash, qo‘lda terilgan har bir kilogramm paxta xomashyosi uchun adolati mehnat haqi to‘lanishi, paxta-to‘qimachilik klasterlari, fermer xo‘jaliklari xodimlari bilan mehnat shartnomasi, vaqtinchalik terimga jalb qilingan

fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muddatli mehnat shartnomasi hamda terim guruhlari va paxta yetishtiruvchi xo‘jalik o‘rtasida jamoa shartnomasi tuzilganini nazorat qilishdan iborat. Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha respublika uch tomonlama komissiyasi tomonidan tayyorlangan tavsiyalarga rioya etilishi ham monitoring jarayonida o‘rganiladi.

Joriy yilgi milliy monitoring 25-sentabrdan 31-oktabrgacha davom etadi. Jarayonda aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish choralari ko‘riladi. Monitoring yuzasidan O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy komissiyasiga axborot berib boriladi.

“Milliy monitoringni sifatli o‘tkazish maqsadida uning uslubiyati, “Monitoring guruhlarining joylarda harakatlanish ketma-ketligi”, “Monitoringda intervyu olish savolnomasi”, “Paxta yig‘im-terimi ishtirokchilari uchun yaratilgan shart-sharoitlarni baholash bo‘yicha savolnoma” va axborot berish shakllari ishlab chiqilib, monitoring guruhlariga taqdim etildi.

aybdorlarga nisbatan chora ko‘rish uchun mehnat inspeksiyasiga yuborilishi qayd etildi. Majburiy mehnatdan foydalanish foydalarini aniqlangan holda esa zudlik bilan kasaba uyushmalari inspektori tomonidan vaziyat o‘rganilishi hamda dalolatnoma tuzilib, majburiy mehnatga jalb qilinganlarni ish joyiga qaytarish chorasi ko‘rilishi, shu bilan birga, hududiy “Qayta aloqa mexanizmi” vakillariga ham xabar berilishi ma’lum qilindi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimida xodimlar mehnat huquqlari buzilishining oldini olishga qaratilgan “Qayta aloqa mexanizmi” tashkil etilgan. Bu mavsum davomida uzluksiz ishlaydi. Buning uchun federatsiya yuridik klinikasi va hududlardagi filiallarida kasaba uyushmalari vakillarining doimiy navbatchiligi tashkil qilingan. Kelib tushgan murojaatlarni tezkor ko‘rib chiqish maqsadida 10-92 qisqa raqamli “ishonch telefoni”, internet saytlari, telegram ijtimoiy tarmog‘i imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.

Bu haqda kasaba uyushmalari tomonidan maxsus bannerlar tayyorlanib, barcha hududlarda o‘rnatilmoqda. Korxona, tashkilot, muassasalar hamda odam gavjum joylarga esa ko‘plab posterlar joylashtirildi va mehnatkashlar hamda aholi vakillariga flayerlar tarqatilmogda.

Milliy monitoring jarayonida O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi va “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonunlari hamda Xalqaro mehnat tashkiloti bilan kelishilgan monitoring uslubiyati talablariga muvofiq, o‘rganish natijalarini oshkor etmaslik tamoyiliga amal qilinadi. Monitoring yankunlari to‘g‘risida joriy yil dekabrda o‘tkaziladigan dvra suhbatida batafsil ma’lumot beriladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



“Kambagʻallikdan farovonlik sari” III xalqaro forumida Oʻzbekiston Prezidenti dunyoda kuzatilayotgan geosiyosiy, ijtimoiy beqarorlik, iqlim oʻzgarishlari taʼsirida global iqtisodiy oʻsish sekinlashgani, oqibatda kambagʻal aholi soni oshganiga eʼtibor qaratdi. Bu holat barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar, umuman, dunyo hamjamiyati oldiga yangi va dolzarb vazifalarni qoʻyayotgani taʼkidlandi.

YARATILAYOTGAN SHAROIT VA PUKTA REJA

ODAMLARNI DOIMIIY ISH HAMDA DAROMAD BILAN TAʼMINLAMOQDA



Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati aʼzosi

Ana shunday murakkab davrda mamlakatimizda kambagʻallikka qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgani va pirovardida katta natijalarga erishilayotgani tahsinga sazovor.

Jumladan, xalqaro tashkilotlar mutaxassislari kambagʻallikni qisqartirishni aholining muayyan toifasi darajasiga koʻtarilgani tushib qolishining oldini olishdan boshlash lozimligiga eʼtibor qaratadi. Shunga hamohang tarzda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordam miqdori rasman belgilangan eng kam isteʼmol xarajatlaridan oz boʻlishi mumkin emasligi belgilab qoʻyildi. Har bir inson, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarga oʻz salohiyatini toʻliq namoyon etishi uchun sharoit yaratish va imkoniyatlarini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) tomonidan kambagʻallik darajasiga oid mezonlar tavsiya etilgan. Jumladan, kambagʻallik darajasi muayyan yoshdagi aholi guruhi daromadlari uy xoʻjaliklari oʻrtacha daromadining yarmidan kam boʻlgan chegaradan past boʻlishi bilan izohlanadi. Mamlakatimizda kambagʻallikni qisqartirish yoʻnalishidagi izchil islohotlar tufayli 7,5 million aholi kambagʻallikdan chiqarilib, 2024-yilda bu koʻrsatkich 8,9 foizga tushirildi. Yil yakunigacha kambagʻallik darajasini 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT kambagʻallik chegarasini asosiy tovar va xizmatlar uchun zarur boʻlgan daromadlar sifatida belgilaydi. Har bir davlatning umumiy farovonlik koʻrsatkichi kambagʻallik darajasi mezonlari va uni qisqartirish uchun yuritilayotgan ijtimoiy siyosatga bogʻliq. Jahon amaliyotida kambagʻallikni hisoblashning uchta, yaʼni mutlaq, nisbiy va subyektiv konsepsiyasi keng tarqalgan. Ushbu konsepsiyalar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, biri ikkinchisini toʻldiradi. Oʻzbekiston ayni yoʻnalishdagi yangi tashabbus va tajribalarni sinovdan oʻtkazib, dunyodagi ijobiy yutuqlarni oʻrganib, kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha yangi Oʻzbekiston modelini yaratadi.

Bunda, avvalo, manzilli ijtimoiy daftarlar joriy etilib, barcha ehtiyojmand oilalar qamrab olindi. Pandemiya davrida bepul dori-darmon, ijtimoiy nafaqalar uchun 8 milliard dollarlik mablagʻ va imtiyozlar berildi. Natijada 5 million 200 ming odamning “kambagʻallik qopqoni”ga tushib qolishi hamda iqtisodiy retsessiyaning oldi olindi. Jamiyatning eng quyi boʻgʻiniga tashib, “mahallabay” ishlash tizimi yoʻlga qoʻyildi. Har bir xonadon, oila bilan individual reja asosida ishlab, daromadini oshirish uchun yetarli resurs ajratildi.

Inson kamoloti indeksi bir yil davomida yalpi milliy daromadning aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan ulushi, aholining savdoxonlik darajasi, uzoq umr koʻrish davomiyligini baholaydigan koʻrsatkich hisoblanadi. Indeksda 3 ta asosiy omil — uzoq va sogʻlom hayot kechirish, bilim olish va munosib turmush darajasi hisobga olindi.

Turmush darajasi nominal va real oʻrtacha ish haqi darajasi, pensiya va nafaqaning eng kam miqdori, oʻrtacha va real pensiya miqdori, aholi jon boshiga oʻrtacha va real

daromadlar tabaqalanish koʻrsatkichlari, turmush kechirishning eng kam miqdori hamda turmush kechirish uchun eng past daromadga ega aholi salmogʻi bilan belgilanadi. Taʼlim darajasi esa mamlakat taʼlim tizimidagi uchta asosiy koʻrsatkichni oʻz ichiga oladi: oʻquv yili davomiyligi, kutilayotgan taʼlim davomiyligi, oʻrtacha taʼlim davomiyligi. Mazkur koʻrsatkichlar aholi turmush darajasiga salmoqli taʼsir koʻrsatadi.

Forumda Prezidentimiz “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturining mazmun-mohiyatini ifodalovchi yetitta ustuvor yoʻnalish xususida gapirdi. Bunda yuqorida sanab oʻtilgan barcha jihatlar ushbu dasturdan oʻrin olgani va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini koʻrish mumkin.

Eng avvalo, kambagʻal aholini shunchaki ishga joylashtirish emas, balki doimiy ish oʻrinlarini koʻpaytirib, odamlar barqaror daromad manbaiga ega boʻlishi uchun sharoit yaratilmoqda. Faol investitsiya siyosati tufayli shu yilning oʻzida 35 milliard dollar sarmoya evaziga 9 mingdan ortiq yangi korxona, 300 mingga yaqin yuqori daromadli ish oʻrni tashkil etilmoqda. Davlat biznesga sharoit yaratib beryapti, tadbirkorlar esa oʻziga ijtimoiy masʼuliyat olib, ehtiyojmand aholini ishlari bilan daromadli qilishda koʻmakchi boʻlmoqda. Shunday samarali hamkorlik tufayli joriy yilning oʻzida 270 mingdan ziyod kambagʻal oila aʼzosi doimiy ishlari boʻlgan.

Ikkinchidan, sifati taʼlim inson kapitalini rivojlantirish, uzoq muddatli istiqbolida kambagʻallikni qisqartirishning asosiy dryaveri boʻlib qoladi. Xususan, kambagʻal



oila bolalarini maktabgacha taʼlim bilan toʻliq qamrab olish uchun barcha sharoit yaratiladi. Bunday oilalar farzandlari uchun xorijiy til va kasb-hunar oʻrganishga ketadigan xarajatlarning 80 foizi qoplab beriladi.

Soʻnggi besh yilda 800 mingdan ziyod aholi zamonaviy kasblarga oʻqitilib, yuqori daromadli ishlarga joylashtirilgan. Endi kasbga tayyorlash xalqaro markazlari tashkil etilib, ularning bitiruvchilariga xorijda tan olinadigan sertifikatlar berish yoʻlga qoʻyildi.

Uchinchidan, xotin-qizlarni jamiyatning faol aʼzosi sifatida aylanitirish alohida eʼtibord boʻladi. Shu bois, talaba qizlarga foizsiz kredit ajratish, magistraturada bepul taʼlim olish imkoniyati yaratildi. Bugun talabalarining

53 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Shu yilning oʻzida 1 million 700 ming ayol ishli boʻlgan.

Buni davom ettirib, “Raqamli avlod qizlari” dasturi doirasida 50 ming qiz axborot texnologiyalari, fintex va sunʼiy intellektga oʻqitiladi. Joriy yil ayollar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash uchun 1,5 milliard dollar ajratildi. Kelasi yili yana 2 million ayolni doimiy daromadli qilish choralari koʻriladi.

Toʻrtinchidan, inson salomatligi muhofaza qilinib, imkoniyatlari toʻlaqonli yuzaga chiqarilmoqda. Jumladan, 140 ming kambagʻal oilaga shifokor birlashtirilib, ular yiliga bir marta toʻliq tibbiy koʻrikdan oʻtkazilmoqda. Endi kafolatlangan tibbiy xizmatlar koʻpaytirilib, kambagʻal



oilalarning bunga sarf qiladigan xarajati 2 karra qisqartiriladi. Bunda ularga bepul dori va kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi taqdim etiladi.

Beshinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan manzilli ishlash yoʻlga qoʻyildi. Mazkur tizim tubdan isloh qilinib, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Har bir tuman va shaharda 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatni “bir darcha” tamoyili asosida koʻrsatadigan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ochildi. Har bir mahallada ijtimoiy xodim aholi bilan proaktiv ishlamoqda. Shu yilning oʻzida 2 million 700 ming aholiga ijtimoiy xizmat va yordamlar koʻrsatildi. Ayniqsa, kambagʻal oilalarning parvarishiga muhtoj aʼzolariga



Forumda xalqaro moliya institutlari vakillari Oʻzbekistonning kambagʻallikni qisqartirish borasidagi tajribasidan boshqa davlatlar ham oʻrnak olishi mumkinligini taʼkidladi. Xorijiy davlatlarning kambagʻallik muammosi tahlili koʻrsatadiki, bir mamlakatning kambagʻallikni qisqartirish uslubini boshqa davlatga mexanik toʻliq koʻchirib olib kelish va foydalanish ijobiy samara bermaydi. Chunki iqtisodiy rivojlanishdagi tafovutlar, turlicha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, urf-odatlar, milliy anʼana va malakaviy koʻnikmalar bunga imkon bermaydi. Lekin xorijlik mutaxassislar Oʻzbekiston tajribasini tizimlashtirib, kambagʻallikka qarshi kurashayotgan boshqa davlatlarga tatbiq etish imkoniyatini yaratish zaruratini taʼkidladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur forum Oʻzbekistonning kambagʻallikni qisqartirish borasidagi faoliyatida muhim bosqichni belgilab berdi. Eng asosiy jihatlardan biri — Oʻzbekiston kambagʻallikni qisqartirish sohasida global yetakchi davlat sifatida eʼtirof etildi.



4

2025-yil 25-sentabr, 198-son

www.yuz.uz

f yuz.uznews

ig yuz.uz news

yt yuz.uz

YANGI OʻZBEKISTON

KORRUPSIYAGA

QARSHI KURASH: TAHLIL,

MUAMMO VA YECHIMLAR

Dolzarb mavzu



Ubaydulla MINGBOYEV,
Oʻzbekiston sudyalari assotsiatsiyasi raisi,
Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan yurist

Uzoq yillik sud-huquq sohasi vakili hamda hayotiy tajribaga ega inson sifatida ishonch bilan aytishim mumkinki, korruptsiyalashgan jamiyatda farovonlik, davlatda rivojlanish, oʻzaro oldi-berdilarida ishtirok etgan odamlar hayotida esa halovat, roʻzgʻorida baraka boʻlmaydi. Yarim asrdan ortiq davom etayotgan faoliyatim va shaxsiy kuzatuvlarimga koʻra, korruptsiyaga qarshi kurash kompleks yondashuvni talab etadi. Yaʼni unga qarshi davlat va jamiyat bir yoqadan bosh chiqarib, hamijhatlikda kurashmas ekan, kutilgan samaraga erishib boʻlmaydi. Soddaaroq aytganda, vakolatli organlar nazorat va targʻibotni kuchaytirgani bilan jamiyatda bu ishlar “koʻzdan panada” davom etsa yoki aksincha, butun jamiyat korruptsiyaga nisbatan toqatsiz boʻlgani holda davlat bunga eʼtiborsiz boʻlsa, uni batamom yengish, tag-tomiri bilan quritish imkonsiz boʻlib qolaveradi.

Mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurash masalasiga kompleks yondashilayotir. Xususan, joriy yil 5-mart kuni Prezidentimiz raisligida Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining korruptsiyaning oldini olish boʻyicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bagʻishlab oʻtkazilgan kengaytirilgan yigʻilishi muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda. Zero, unda yurtimizda korruptsiyadan xoli muhit yaratish boʻyicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi ustuvor vazifalar belgilangan edi.

Mazkur yigʻilishda berilgan topshiriqlardan kelib chiqib, joylarda korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar tahlili, muammo va yechimlariga qaratilgan seminarlar oʻtkazib boryapmiz.

Aslida, korruptsiya juda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy hodisadir. Shu bois, barchamiz korruptsiyaviy holatlarga eng xavfli illat sifatida qarashimiz, undan hazar qilishimiz, lozim darajada batamom qutulishga urinishimiz shart. Davlatimiz rahbari ham korruptsiya islohotlari yoʻlidagi eng katta toʻsiq va gʻov ekanini taʼkidlab, “Butun jamoatchilik birlashib, korruptsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak”, degan haqli eʼtirofini bildirgan edi. Shuningdek, korruptsiyaning oldini olish maqsadida davlat xizmatiga professional kadrlarni tanlash hamda ularni “halollik vaksinasi” bilan emlash zarurligi qayd etilgandi.



Har bir sohada tovlamachilik, firibgarlik, tamagirlik va poraxoʻrlilik yoʻli bilan noqonuniy boylik oʻrttirishga urinishlar boʻlib turadi. Har birimiz qaysi kasb yoki lavozimda ishlashimizdan qatʼi nazar, sharaflari kasbimiz, pok vijdonimizga sodiq holda vakolatimizni begʻaraz amalga oshirsak, bu yondashuv butun jamiyat boʻylab yoyilsa, albatta, ushbu illatga batamom nuqta qoʻygan boʻlamiz.

Amaldagi qonunchilikka koʻra, davlat xizmatchisining oʻz mavqeidan foydalangan holda muayyan ishni mablagʻ evaziga qonunga xilof ravishda kimningdir manfaatini koʻzlab amalga oshirishi korruptsiyaviy holat deb baholalanadi. Jinoyat sanaladigan bu qilmishni, nazariyda, qonunni mensimaydigan, nafsini tiya olmaydigan, tarbiyasi sayoz, maʼnaviyati past va ojiz kishilar amalga oshiradi.

Valoyatlarda oʻtkazilayotgan seminarlarda masalalar shu jihatlariga ega eʼtibor qaratyapmiz. Tahlillardan koʻrinishicha, jinoyat ishlari boʻyicha Jizzax viloyati sudlari tomonidan korruptsiya bilan bogʻliq ishlar sohalar kesimida atrofiycha tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilgan. Taʼlim, sogʻliqni saqlash, kadastr va boshqa ijtimoiy sohalarda korruption sxemalar koʻpaygani, hattoiki ayrim hokim yordamchilarining bu masalada sudlangani achinarli hol.

Oʻrni kelganda aytishni istardimki, Oʻzbekiston sudyalari assotsiatsiyasi yil tizimida sodir etilishi mumkin boʻlgan korruptsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish borasida tegishli choralarni koʻryapti. Soha oqsoqollaridan biri, koʻp yillik amaliyotchi sifatida shaxsan oʻzim sudyalari va soha xodimlariga toʻrt marotaba murojaat qildim. Ushbu murojaatlarning soʻnggisi Oliy sud tashabbusi bilan kitob holda nashr etilib, barcha sudyalarga tarqatildi.

Gap barcha soha va tarmoqlar, jamiyatimizda korruptsiyaga batamom barham berish haqida borar ekan, bir taklifni ilgari surmoqchiman. Baʼzi hollarda sud amaliyotida pora beruvchi yoki pora berishga qiziqitiruvchi yoxud pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxslarning xatti-harakatlariga yetarli

kurashish milliy kengashiga NNTlarning korruptsiyaga qarshi kurashish yoʻnalishidagi loyihalari va ularni tegishli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan moliyalashtirish yuzasidan takliflar hamda korruptsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki, jumladan, ular tomonidan amalga oshirilgan loyiha, tadqiqot va oʻrganishlar toʻgʻrisida axborot kiritib boradi.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, “Yuksalish” harakati va “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish markazining ular muassisligida “Korruptsiyaga qarshi kurashish muammolari boʻyicha mintaqaviy tadqiqot markazi” nodavlat notijorat tashkiloti tashkil etiladi. Aholi, ayniqsa, yoshlar, fuqarolik jamiyati institutlarining korruptsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini oshirish, jamiyatda ushbu illatga qarshi murosasiz munosabatlarni shakllantirish masalalarini tadqiq etish ushbu markazning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, tovlamachilik, firibgarlik, tamagirlik kabi qingʻir yoʻllar bilan noqonuniy boylik oʻrttirishga urinishlar, qolaversa, bu borada texnik taraqqiyot bilan bogʻliq “yangi imkoniyatlar” bor ekan, unga qarshi kurash davom etaveradi. Muhimi, Prezidentimiz va bugungi davrning oʻzi oldimizga qoʻyayotgan talab — jamiyatimizda korruptsiyaga nisbatan toqatsiz muhitni shakllantirishimiz shart.

Poraxoʻrlikka ruju qoʻygan shaxslarning nafaqat oilasi barbod boʻladi, balki uning qilmishi tufayli qarindosh-urugʻlari, mahalla-koʻy oldida obroʻsiga putur yetadi, shu bilan birga, ishlab turgan sohasiga taʼsir koʻrsatadi.

Xulosa oʻrnida aytmoqchiman, jonajon Oʻzbekistonimiz ravnaqi va buyuk kelajagini barpo etish, yurtimizda qonun ustuvorligi va xalq farovonligini taʼminlash hamda korruptsiyadan xoli adolatli jamiyat qurish yoʻlidagi islohotlardan chetda turmasak, barchamiz imkonimiz qadar korruptsiyani jilovlashga hissa qoʻshsak, koʻzlangan katta maqsadlarimizga albatta erishamiz.



2025-yil 25-sentabr, 198-son

5

ILK RIVOJLANISH MARKAZLARI SHUNCHAKI VAQT O‘TKAZISH YOKI NAZORAT UCHUN USHLAB TURUVCHI MASKAN EMAS

Bugun davlatning ta’limga alohida e’tiborini, ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimidagi islohotlar samarasini eng olis hududlardagi yurtodshlarimiz ham sezyapti. Qishloqlarda xususiy, oilaviy nodavlat bolalar bog’chalari ko’paygan bo’lsa-da, yana shunday muassasalarga ehtiyoj sezilyapti. Vaholanki, qaysi davrda aholisi kam, tog’li hududlarga avtobus bog’chalar kirib borgan? Yana qaysi paytda tarbiyachilar uyma-uy yurib, alohida ta’limga ehtiyojmandlarga ta’lim-tarbiya bergan? Mazkur yo’nalishda qamrov 25-27 foiz bo’lgan davrlarda ko’plab ota-onalar bog’chaga farzandini shunchaki nazoratda ushlab turuvchi joy sifatida qaragan.

Bugun esa bu boradagi qarashlar butunlay o’zgardi. Qamrovda qariyb 80 foizga ko’tarilishimizda mustahkam ko’prik vazifasini o’tayotgan islohotlar odamlarning maktabgacha ta’limga munosabatini ham tubdan o’zgartirdi. Bu ta’lim turining zamonaviy ko’rinishlari, qolaversa, ilk rivojlanish markazlari faoliyatining yo’lga qo’yilishi maktabgacha ta’lim xizmatlaridan foydalanishning ajoyib muqobili bo’ldi. Shu ma’noda, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan bu shakl o’zini oqlayotgan tajriba sifatida respublikamizning barcha hududida amaliyotga tatbiq etilyapti.

Ilk rivojlanish markazlari maktabgacha ta’limga qamrab olinmagan 3-6 yoshli bolalar uchun “o’yin guruhlari” va 2-7 yoshli alohida ta’limga ehtiyojmand bolalar uchun “maksus maktabgacha ta’lim xizmati” modellari asosida ish yuritadi. Ikkinchi model nogironligi bor yoki yo’qligidan qat’i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e’tiboriga muhtoj, individual ehtiyojlarga ega bolalarga xizmat qiladi.

Yaqinda poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 41-maktabda ish boshlagan ilk rivojlanish markazi faoliyati bilan tanishib, maktabgacha ta’limning bu shakli bilan ham kutilgan natijaga erishish mumkinligiga guvoh bo’ldik. Uch-to’rt kunda 20 bolani jalb etgan markaz xonalari belgilangan tartibda jihozlangan. O’quv va didaktik materiallar yetarli. Mashg’ulotlar jarayonini kuzatishga kelgan onalar avvaliga bu joyni xususiy bog’cha bo’lsa kerak deb o’ylaganini aytdi. Xuddi bolalar bog’chasidagidek sharoit yaratilgani uchun tashkilotchilarga minnatdorlik bildirildi.

— O’n kun avval poytaxtimizning Yunusobod, Mirobod va Shayxontohur tumanlarida ilk rivojlanish markazlari ochildi. Ularda faoliyat yuritish tartibi yuzasidan Urganchdagi ilk rivojlanish markazida bo’lib o’tgan respublika seminarida qatnashib, o’zaro fikr almashdik, ish o’rganib keldik. Bizga tumandagi 41-maktabda

bo’sh turgan xonalar berildi. Pedagog xodimlar uchun zarur sharoit yaratib, birinchi modeli yo’lga qo’yib oldik. Uylarga borish bo’yicha tumandagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi bilan hamkorlikda ishlayapmiz. Hozircha alohida ehtiyojga ega bolalar aniqlanmadi, — deydi Shayxontohur tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi bosh metodisti Aziza Karimova. — Agar odamlar markazdan unumli foydalanib, farzandlarini 3-4 soat bizga topshirsa, bola atrofni anglaydi, ancha rivojlanadi. Uyda o’tirgan, chaqalog’i bor onalar uchun bu, ayniqsa, yaxshi imkoniyat. Shuning uchun tumandagi barcha maktabgacha ta’lim tashkilotiga ish boshlaganimiz, markazga qabul qilayotganimiz haqida e’lon berdik. Tez orada tarbiyalanuvchilarimiz soni bir necha barobar ortadi deb o’ylaymiz.

Metodist aytganidek, hamma narsani tez va oson ilg’ab, ongida saqlab qoladigan bolalar uchun 3-4 soat ham manfaatli bo’ladi. Ertalab olib kelingan o’g’il-qiz aqliy, jismoniy harakatlardan toliqish sezgan paytda, ya’ni tushlik vaqtda uyida bo’lib, miriqib orom oladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O’QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Markazga bolalar davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish tartibi asosida olinadi. Bunda kambag’al oilalar farzandlariga ustunlik beriladi. Markazga qabul qilinadigan barcha bolaning boshqa davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi navbati saqlab qolinadi. Tarbiyalanuvchilarning ota-onasidan to’lov undirilmaydi.

Markazda esa tushdan keyingi ikkinchi navbat boshlanadi.

— Bu yil 50 ta tuman (shahar)da ilk rivojlanish markazlarini tashkil etish, 2026-2028-yillarda esa qolgan hududlarda bosqichma-bosqich ochish rejalashtirilgan. Shunga ko’ra, joriy yilda Qoraqalpog’istonda 3 ta, Sirdaryoda 1 ta, Surxondaryoda 2 ta, Buxoro, Farg’ona, Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrida 3 tadan, Jizzax, Navoiy, Toshkent viloyatlarida 4 tadan, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand, Namangan viloyatlarida 5 tadan ilk rivojlanish markazi faoliyati yo’lga qo’yildi. Ushbu markazlarda hududlar ehtiyojidan kelib chiqib, maktabgacha

ta’limga qamrab olinmagan bolalarni, birinchi navbatda, kambag’al oilalar reyestriga kiritilgan xonadonlar farzandlarini qamrab olish nazarda tutilgan, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi boshqarma boshlig’i Zafar Usanov.

Mutasaddining aytishicha, markazga bolalar davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish tartibi asosida olinadi. Bunda kambag’al oilalar farzandlariga ustunlik beriladi. Markazga qabul qilinadigan barcha bolaning boshqa davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi navbati saqlab qolinadi. Tarbiyalanuvchilarning ota-onasidan to’lov undirilmaydi.

“Maksus maktabgacha ta’lim xizmati” modeli bo’yicha biriktirilgan pedagog xodimlar alohida ta’lim olishga ehtiyojmand bolalarning uyiga borib, nafaqat ularga, balki ota-onalariga ham zarur maslahat va tavsiyalar beradi. Ularning har bir kelishi uchun yo’l xarajati qoplanadi. O’z navbatida, bu xodimlardan shaxsiy rivojlanish, tahliiliy va tanqidiy fikrlash, nizo va ziddiyatlarni hal qila olish, bolani rivojlantirish va tarbiyalash uchun muhit yaratish, har bir o’g’il-qizning o’ziga xosligi, his-tuyg’ulari va fikrlarini qabul qilish, inkliyuziv ta’limni tashkil etishdagi mas’uliyatni anglatish, interfaol metodlarni qo’llash kabi ko’nikmalar talab qilinadi.

Umuman olganda, mexanizm puxta ishlab chiqilgan. Tizimli yo’lga qo’yilayotgan ilk rivojlanish markazlari maktabgacha ta’limga qamrab olinmagan bolalar uchun yangi imkoniyat. Shu ma’noda, bu modelni joylarda samarali tashkil etish bolajonlarning barcha hayotiy ko’nikmalari shakllanishida muhim o’rin tutadi.

Ijtimoiy faol yoshlarni e’tiborsiz qoldirmaydigan tizim

Endi joylarda “Kelajak” markazlari ham ish boshlaydi. Bu haqda Prezidentimizning 2025-yil 8-sentabrdagi “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorida so’z yuritilgan. Maqsad — yoshlarning qobiliyatini yuzaga chiqarish, maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, o’quvchilarning bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazishga erishish. Qarorga binoan, yurtimizdagi 219 ta “Barkamol avlod” maktabi, “Yoshlik” sport jamiyati, O’quvchi yoshlar markazi va O’zbekiston bolalar tashkiloti negizida respublika, hudud va tumanlarda “Kelajak” markazlari tashkil etiladi. Ular maktablar bilan uzviylikni jonlantirib, o’quvchilarni muhandislik, ilm-fan, madaniyat, san’at, kitobxonlik, sport va ekologiya yo’nalishlari bo’yicha to’garaklarga jalb qiladi. Bolalarning qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqib, AT, chet tillar va boshqa yo’nalishlarda ham to’garaklar ochilishi ko’zda tutilgan. Bu yoshlarning keng qamrovli bilim olishi va kelajakda raqobatbardosh kadrlar bo’lib shakllanishiga xizmat qiladi. Yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, to’garaklarga to’g’ri yo’naltirish uchun har bir maktabda maslahatchi vazifasi ochilyapti. Gap shundaki, to’garaklar va olimpiadalarda erishgan natijalari bo’yicha yoshlarning “raqamli portfolio”si shakllantirilib, elektron shahodatnomada ko’rsatiladi. Buning uchun esa alohida tizim yaratish kerak.

Yangi markazlar va maktab maslahatchilari faoliyati haqidagi savollar bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika “Kelajak” markazi direktori Indira Xoldorovaga murojaat qildik.

— Odatda qaror qabul qilingan kundan boshlab faoliyatga kirishiladi, — deydi markaz direktori. — Shu ma’noda, “Kelajak” markazlarini tashkil etish borasidagi ishlar boshlangan. Markazlarga jalb etiladigan o’quvchilar bilan ishlovchi maktab maslahatchiligiga 30-35 yoshgacha bo’lgan salohiyatli yoshlar tayinlanadi. Ularning pedagog bo’lishi har ikki tomon uchun juda

manfaatli. Chunki ular maktab direktorlarining o’quv-tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosarlari, maktab psixologlari bilan hamkorlikda ishlaydi. Prezident maktablari targ’iboti bilan shug’ullanadi. Shuningdek, “Prezidentning iqtidorli farzandlari” milliy dasturi bo’yicha ham faoliyat yuritadi. Hozirgacha bizda maktabdan tashqari paytda qaysi o’quvchi qaysi to’garakka borayotgani haqida raqam va ma’lumotlar mavjud emas edi. Shu ma’noda, maslahatchilar har bir o’quvchining raqamlashtirilgan ijtimoiy portfoliosini ishlab chiqadi. Bu orqali bolaning 1-sinfdan 11-sinfgacha qaysi o’quv markazlariga borgan, qanday to’garaklarga qatnagani, umuman, ijtimoiy faolligini ko’rish mumkin.

Ayni paytda maslahatchilarning lavozim yo’riqnomalari ishlab chiqilyapti. Ota-onalar to’loviga kelsak, 2026-yil yanvardan ushbu badal miqdori oshiriladi. Binobarin, to’lov summasi yuqori bo’lsa, ta’lim sifati ham shunga monand bo’ladi. Chunki aksariyat “Ota-onalar arzimagan pul uchun o’qituvchilar sifati ta’lim bermaydi”, degan fikrda yuradi. Umuman olganda, bu bo’yicha hukumatning tegishli qarori ishlab chiqildi. Kambag’al oilalar farzandlari esa bepul ta’lim oladi.

Maktabdan tashqari ta’limni yangi bosqichga olib chiqish borasidagi qaror tizimdagi asosiy muammolarni hal qilib berdi. Birgina misol: “Barkamol avlod” maktablari, “Yoshlik” sport jamiyati, O’quvchi yoshlar markazlarining vertikal tizimi mavjud emas edi. “Kelajak” markazlari orqali endi vertikal tizim yaratilyapti.

Shuningdek, qaror bilan yana bir katta muammo hal bo’ldi. Ilgari maktabdan tashqari ta’limda to’garak rahbarlarining haftalik yuklamasi 24 soat edi. Vaholanki, bu ta’lim majburiy emas. Majburiy ta’limda ham o’qituvchilar boshlang’ich sinfda 18, yuqori sinfda 20 soat yuklama bilan ishlaydi. Ixtiyoriy ta’limning yuklamasi majburiy ta’limnikidan ko’p bo’lishi mumkin emas. Xorijda ham bunday yuklama kuzatilmaydi. Shu bois, qarorda to’garak rahbarlarining haftalik ish yuklamasi 16 soat deb belgilandi. Bu ish unumdorligi, sifatiga ta’sir etib, maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini oshiradi.

Ayni paytdagi islohotlarning barchasi bugungidan yaxshi natijalar uchun xizmat qilmoq’i kerak. Qaysi jabhada bo’lmasin, ularning zamirida farzandlarimiz kamoloti, nurli ertasi aks etadi. Shu ma’noda, ilk rivojlanish markazlaridan tortib, “Kelajak” markazigacha bo’lgan sa’y-harakatlar samarasi ta’limning keyingi bosqichlarida namoyon bo’ladi.

Munojat MO’MINOVA,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

CHEKSIZ IMKONIYATLAR ESHIGI OCHIQ BILDIRILGAN YUKSAK ISHONCHNI OQLASAK, BAS

Munosabat

To’ychiboy BOYMATOV,
Farg’ona viloyati oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig’i

Joriy yil 15-sentabr kuni Toshkent viloyati Bo’stonliq tumanida O’qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan o’tkazilgan tantanali tadbir nafaqat soha xodimlari balki butun mamlakat tarixida o’chmas iz qoldirdi.

Tadbirda Prezidentimiz umrini yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga bag’ishlagan muallimlarga yuksak ehtirom ko’rsatib, kasb bayrami bilan tabrikkladi. Davlatimiz rahbarining biz, pedagoglar bilan samimiy muloqoti barchamizni yangi maqsad, tashabbuslar sari undadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal rivojlanib boryapti. Tarraqqiyot esa doim yuksak bilim va salohiyatga ega mutaxassislarga talabni kuchaytiradi. Chunki sohani olg’a siljitadigan kadrlar, avvalo, sifatli ta’lim olishi kerak. Bunday shaxslar kasbining mohir egasi bo’lgani bois, muvaffaqiyatga oson erishadi.

Yurtimizda ta’lim sifati va samaradorligi tubdan o’zgardi. Ochig’i, malakali mutaxassislar tayyorlash, iqtidorli yoshlarni qo’llab-quvvatlash, nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash kabi jihatlarni besh-olti yil avvalgi holat bilan qiyoslab bo’lmaydi.

Keling, fikrimizni aniq raqamlar bilan asoslasak. Hozir Farg’ona viloyatida 63 ta kasbiy ta’lim tashkiloti bor. Ularda 69 ming 532 yigit-qiz 161 ta mutaxassislik bo’yicha ta’lim-tarbiya olmoqda. Bu yerda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg’unlashtirishga qaratilgan tizim — dual ta’lim yo’lga qo’yilgan. Shu orqali yoshlarni kasb-hunarga o’rgatish uchun bir nechta yangi loyiha, tashabbuslar joriy etildi. Kasbiy ta’lim tashkilotlariga yirik ish beruvchi korxona va tashkilotlar biriktirilgan. Natijada 9080 o’quvchi dual ta’limga qamrab olindi. Ular 53 ta texnikumda 38 kasb va mutaxassislik bo’yicha ta’lim olmoqda. Joriy yil yakuniga qadar shu yo’nalishga 14 ming o’quvchi jalb etiladi.

Bu borada xalqaro hamkorlik ham samara bermog’da. Masalan, Farg’ona sanoat va xizmat ko’rsatish texnikumi xalqaro ta’lim dasturlari doirasida Buyuk Britaniyaning “Pearson” kompaniyasi bilan hamkorlik qilmoqda. Unga ko’ra, yoshlar metalla ishlov berish, payvandlash, elektrikli, kompyuter operatorligi kabi talab yuqori kasblarga tayyorlanadi. Muhimi, ularning amaliyotini 70 dan ortiq davlatda o’tashi uchun imkoniyat yaratiladi. Yakunda 120 dan ortiq mamlakatda tan olingan xalqaro toifadagi diplom hamda muvofiqlik sertifikatini beriladi. Mazkur yo’nalishlarda



ta’lim olish istagini bildirgan farg’onalik yoshlarning dastlabki guruhi tanlov asosida saralab olindi. Ular zamonaviy ta’lim dasturi asosida o’qib, xalqaro bozorda raqobatdosh mutaxassisga aylanadi. Bu ularga eng nufuzli xalqaro kompaniyalar, yurtimizdagi korxona-tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlarida mehnat qilish imkonini beradi.

Bunday hamkorlik loyihalari esa talaygina. Masalan, Marg’ilon arxitektura va kommunal xo’jaligi texnikumi Germaniyaning “ASKANIA BUILDING” kompaniyasi bilan ombor logistikasi, bino-inshootlar quruvchisi va

qurilish montyorlari yo’nalishida hamkorlik qilyapti. Farg’ona shahridagi 1-politexnikumda Belarusning Baranovich davlat texnologiya va dizayn hamda Zamonaviy mashinasozlik texnologiyalari va avtoservis kollejlari bilan tikuvchilik, mashinasozlik, Marg’ilon turizm va madaniy meros texnikumida Germaniyaning “Saksoniya iqtisodiyot va ta’lim markazi” kompaniyasi bilan mehmonxona xo’jaligini tashkil qilish va boshqarish yo’nalishlarida o’quvchilar kasb-hunarga o’rgatilmoqda. Farg’ona va Marg’ilon shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi

texnikumlarida Shveysariyaning “Globogate Concept AG” tashkiloti bilan hamkorlikda hamshiralik ishi bo’yicha 100 o’quvchini qabul qilish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, barcha ta’lim tashkilotlarida yoshlar va xotin-qizlarni qisqa muddatli kasb-hunar kurslariga qamrab olishga jiddiy e’tibor berilyapti. Joriy yilning shu kuniga qadar 97 ta kasb bo’yicha 4850 yosh va xotin-qizlar qisqa muddatli kurslarda o’qitildi. Ayni kunda ishsiz 824 fuqaro o’zi tanlagan kasb bo’yicha o’qib, hunar o’rganyapti.

Keyingi yillarda kasbiy ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kasb-hunarning bozor talabiga mos turlarini o’rgatishga e’tibor kuchaydi. Bunda “Tashabbusli budjet” loyihasi samara bermog’da. Shu kungacha bu yo’nalishda 37,6 milliard so’m o’zlashtirildi.

Prezidentimiz bilan muloqotda oldimizda turgan muhim vazifalar ijrosiga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, 2026-yil — Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o’rgatish yili bo’lishi qayd etildi. Shu maqsadda Kasbiy ta’lim agentligi tashkil qilinmoqda. Yangi agentlik va hokimlarning asosiy vazifasi barcha texnikumga yangi muhit olib kirish va xalqaro standartlarni joriy qilishdir. Bir yilda 100 ta texnikumda Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Janubiy Koreya, Britaniya kabi davlatlarning ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo’lga qo’yiladi. Ushlarning eng ilg’or kasbiy ta’lim dasturlari joriy qilinadi. Bundan tashqari, kasbiy ko’nikmasi bor istalgan talabgor ushbu texnikumlarda xorijiy davlatlarning malakani baholash tizimi

orqali imtihondan o’tib, xalqaro sertifikat olishi mumkin. “Investor — tarmoq — texnikum” janjiri asosida dual ta’lim yo’lga qo’yilmoqda. Bu ishlab chiqarishga malakali mutaxassislar yetkazib berishda o’ziga xos imkoniyat yaratadi.

Muloqotda dual ta’lim bilan qamrov 5 barobar oshirilishi o’ziga xos imkoniyat yaratadi. Ayni paytda yangi texnologiyalarni o’zlashtirish, xorijiy investorlar bilan erkin muloqot qilish uchun chet tillarni o’qitish juda muhim ekanini qayd etilib, texnikumlarda xorijiy til o’qitish uchun ajratilgan soatlar 4 barobar ko’paytirilishi zarurligi ta’kidlandi. Kelgusi yildan yangi raqamli platforma ishga tushiriladi. Unda texnikum bitiruvchilarining kasbiy ko’nikmasi haqidagi barcha ma’lumot jamlanadi. Ochig’i ma’lumotlar bilan nafaqat o’zimiz, balki xorijiy ish beruvchilar ham tanisha oladi. Bu har ikki tomon uchun qulaylik degani.

Davlatimiz rahbari texnikumdagi muallim va ustalarining malakasini, jamiyatdagi mavqeiini oshirish bo’yicha ham yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Maktablardagi kabi texnikum o’qituvchi va ustalari uchun kasbiy sertifikatlash tizimi joriy qilinadi. Shu orqali texnikum ustozlariga milliy sertifikat uchun oyligining 30 foizi, xalqaro sertifikatga esa 50 foizi miqdorida ustama to’lanadi. Bu fidoyi ustozlarni rag’batlantirish, qo’llab-quvvatlash yo’lida berilgan katta imkoniyatdir. Shu bilan birga, texnikum direktori va o’rinbosarlari maktabdagi hamkasblaridan kam bo’lmagan miqdorda oylik oladi. Agar ular “Direktorlar maktabi”da menejerlik sertifikatini olsa, yana qo’shimcha 20 foiz ustama to’lanadi. Ha, ustozlar mehnatini rag’batlantirishga qaratilgan imtiyoz va imkoniyatlarning sanog’i yo’q. Muhimi, bularning barchasi yurtimizda o’qituvchi va murabbiylar mehnatini qadrlash, qo’llab-quvvatlash yo’lidagi imkoniyatlarning amaliy namunasidir. Endi shunga munosib ishlashak, bildirilgan yuksak ishonchni oqlasak, bo’ldi.

TANAFFUSSIZ JARAYON

TARBIYADA OTA-ONA MAS'ULIYATI

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Andijon viloyati Oltinko'l tumanidagi maktablardan birining ikki o'quvchisi tomlchilatib sug'orish uchun qazilgan texnik hovuzga cho'milish uchun tushib, cho'kib ketgani haqidagi xabar tarqaldi. Qishloqda bunday suv havzasi borligini, bolalar unda cho'milayotganini kattalar bilmagan ham. Himoyalanih uchun hech qanday sharoit yo'q hovuzdan bolalar jasadi muayyan muddat o'tgandan keyin topildi...



Muhtarama ULUG'OVA,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Ijtimoiy tarmoqlardagi bu xabarga munosabat bildirganlarning aksariyati boshiga og'ir musibat tushganlarga sabr tiladi. Bir qarasangiz, ikki xonadonda kutilmagan fojia yuz bergan, atrofdagilar befarq emas, hamdard. Ammo milliy qadriyatlarimizning asosiy ustun qoidalaridan biri shuki, ota-ona o'ziga omonat bo'lgan farzandlarining jismonan, aqlan, ma'nan sog'lom ulg'ayishi uchun kechayu kunduz mehribonlik, g'amxo'rlik ko'rsatishi shart. Lozim bo'lsa, fidoyilik qilishi va tarbiyasiga bilim, jonkuyarlik, hushyorlik, talabchanlik bilan shug'ullanayotganidan dom xabardor bo'lib turishi lozim. Afsuski, ko'pchilik nazdida, ayniqsa, chekka hududlarda bolalar xohlagan paytida uyidagilarni ogohlantirmay qizchib, o'z mahallasi, qo'shnisi, maktabi, uyiga yaqin joylarda yurishi oddiy hol sanaladi.

Biz hozir "bir bolaga yetti mahalla ota-ona" bo'lgan davrlardagi an'analarni tiklash yo'llarini izlayapmiz. Tezkor zamonda aksarimiz qo'shnining, mahallaning bolasi u yoqda tursin, o'z dilbandimizga ham yetarli vaqt-u e'tibor ajrata olmayapmiz. Ko'pchilik ota-onalar bolasining qayoqqa, kimning oldiga, nima maqsadda ketayotganini har doim ham surishtiravermaydi. Bunday vaziyatda o'sgan o'g'il-qizlar xonadonidan chiqib ketayotganda "Men falon joyga ketyapman. U yerda o'qiymiz yoki o'ynaymiz. Falon soat davomida o'sha joyda bo'laman" qabilida ogohlantirishga odatlanmagan, albatta.

Yuqorida tilga olingan fojiani tahlil qilib ko'raylik. Ikki bolajon jasadi muayyan muddatdan keyin texnik hovuz tagidan topilishi ularning bu havzaga kelganidan birorta odam xabardor emasligining dalili. Bolalar o'z ixtiyori bilan uydan chiqib ketgan, hech kim "Qayerga ketyapsan, nima qilasan?" deb so'ramagan. Har doim o'z ixtiyori bilan ko'chaga chiqib, o'roqlari bilan o'ynab

kelishga o'rgangan ikki o'rtoq "birpasda cho'milib kelamiz", degan xayolda, "hech kim so'ramaydi, urishmaydi" degan fikrda hovuzga ketgan bo'lsa, ajabmas. Balki o'sha paytda kattalar uyda bo'lmagandir... Ammo mudhish oqibatni hech qanday sabab oqlamaydi.

Ota-ona hali tajribasiz, hissiyotlarga beriluvchan, har xil takliflarni mulohazasiz, mushohadasiz qabul qilish ehtimoli yuqori bo'lgan bolasini noto'g'ri qadam qo'yishdan asrash uchun tong otgandan kun botgunga qadar farzandi kimlarga hamroh va nima ishlar bilan shug'ullanishini oldindan bilishi, rejalarni aniqlashtirishi, zarur bo'lsa o'zgartirishi shart, menimcha.

Yodingizdami, bir yili singlisini bog'chaga olib borgan yetti yashar qizcha ustiga bog'cha eshigining oynasi sinib to'kilib, og'ir jarohatlardan vafot etgandi. Bu o'zi qarovga muhojir qizchaga kattalarning mas'uliyati yuklanishi oqibati. Yana boshqa bir kichkina opacha bog'chada qolishni istamagan singlisini o'zi bilan uyga qaytarib olib kelgan, ammo bu haqda onasiga aytmagan. Bog'chadan opasi bilan qaytgan kichkintoy o'z holicha o'ynab yurib, ko'chadagi ariqqa tushib nobud bo'lgandi...



Ehtimol, fojiaadan keyin bolani bog'chadan qaytarib olib kelgani, buni hech kimga aytmagani uchun opachaga tanbehlar bo'lgandir. Biroq bu o'rinda bolani ayblash nechog'liq o'rinni?

Shu joyda bir qadrdonimning odati yodimga tushib ketdi. U bolalari endi yura boshlagandan: "Agar yiqilib biror joying shilinsa, darrov menga ayt", farzandlari ulg'aygani sayin: "Sog'lig'ingda, boshqa ishlaringda kichkinagina muammo bo'lsa ham o'zim to'g'rilab olaman deb indamay yurma, menga darrov ayt!" der edi. "Juda oshirvorasiz-da", deb kulsak, "Bular tajribasiz. Ozgina shilingan joyni o'zim tuzataman deb yiringlatvorishi mumkin", deb javob berardi.

O'rtada parda bormi?

Xalqda "Farzand 50, 60, 70 yoshga kirsam ham ota-ona uchun bola", degan gap bor. Demak, ota-onalik mas'uliyati zimmdan hech qachon soqit bo'lmaydi. Zero, ota-onaning fitratida bo'lgan farzandga muhabbat tuyg'usi bunga yo'qo'ymaydi. Faqat hamma gap ana shu mehr-muhabbatni kim qanday tushunishi, qanday namoyon etishida!

Yaqinda Andijondan Samarqandga kelin bo'lib tushgan qizning jasadi ota uyiga olib kelingani haqidagi xabar ijtimoiy tarmoq orqali yoyildi. "Bolam" deb zorlanayotgan ona Samarqanddan qo'shnilaririkiga mehmon



bo'lib kelgan ayol qizini yoqtirib qolib, o'g'liga olib bergani, yigit ilgari ikki (ba'zi o'rinlarda uch marta deb aytilmoqda) bora uylanib ajrashganini aytishmagani, qizi kuyov bilan uch oy yaxshi yashab, keyin notinchlik boshlangani, qiz ota-onasi bilan telefonda gaplashishiga ham kuyov ruxsat bermaganini aytadi. Marhumaning otasi ham motamda.

Sarlavhasini o'qibooq, bu voqea bilan tanishganlar soni soat sayin ortdi. "O'zim samarqandlikman. Adolat qaror topmasa, rozi emasman", "Singlimizning joylari jannatda bo'lsin", "Blogger bolang, shu oilaga yordam beringlar", "Kuyovning jazosini bersin, ekspertiza qilsin, aniq bo'ladi", "Birovning oilasini buzib, tuhmat bilan telefon qilgan qo'shnining jazosini Alloh bersin", "Ota-

to'qilishini sinchiklab ko'zimiz, qo'limiz bilan tekshiramiz-u, kelinlikka, kuyovlikka nomzodlar xususida boshqalarning taklif-u ta'rifi, tashqi ko'rinishi, uy-joyi kabilarni ko'rib kulosa chiqaramiz?

Afsuski, kutilmagan noxush voqeadan keyin buzilgan oilada bir necha yillardan buyon aldov, zulm, mehsizlik, urush-janjallar davom etib kelgani birdan "suv yuziga qalqib chiqadi". Atrofdagilar, mahalla faollari hayron: "Tinchgina yashardilar. Biz bu kelinning yuragida buncha alam, norozilik borligini bilmagandik..."

Boshqalar bilmasligi mumkin. Biroq ona o'zi ulg'aytirgan qizining fe'l-u atvorini, ichidan nimalar o'tayotganini ko'zi, so'zi, kayfiyati, o'zini tutishidan biladi-ku! Bu o'rinda ayrim onalar erka qizlarining "Kuyovingiz yangi ko'ylak olib bermayapti", "Bugun uyimizda kartoshka yo'q", "Qaynonam emizikli bolani tashlab ketmang deb tug'ilgan kunga yubormadi" qabilidagi arzlariynam gap qilib ko'tarib yurishini nazarda tutmaypimiz.

Biroq kuyov xonadonidagi nosog'lom, notinch muhitdagi hayotini bilib-bilmaganga, ko'rib-ko'rmaganga olgan onaning qizi o'z ahvoli holini aytishga jur'at qilmagan, qo'rqqan, yashirgan bo'lsa, demak, ona bilan qiz o'rtasida yillar davomida shakllangan parda bor. Hayotni kuzatgan sayin bu parda beparvolik, loqaydlik, onalik mas'uliyatiyu sharafini bilmaslik, mehsizlik, jur'atsizlik, bilimsizlik "ip"laridan to'qilgan degim keladi.

Meni tushuning, axir farzandga va ayniqsa, qizlarga onadan ham yaqinroq, sirdoshroq, g'amxo'rroq kim bo'lishi mumkin? Yana: yomonlikni ko'rib, kundan kunga kattarib borayotgan salbiy oqibatlarini his etib turib, uni yaxshilash yo'lini izlamay jim yurish sabr emas, jur'atsizlik, qo'rqqoqlik, mas'uliyatsizlikdir.

Fikrimning isboti uchun atrofga bir qur nazar solishning o'zi kifoya. Yo'lakda yosh



ona telefonga tikilgancha ketib boryapti, orqasidan yig'lab, oyoqchalari chalishib chopib borayotgan uch yoshlar chamasidagi qizaloqning asfalt yo'lga yiqilib tushishi mumkinligidan xavotirlanasiz, ona esa telefonidan ko'zini uzmaydi... Jamoat transporti har tormoz berganda o'rindiqqa o'tqazib

BIZ HOZIR "BIR BOLAGA YETTI MAHALLA OTA-ONA" BO'LGAN DAVRLARDAGI AN'ANALARNI TIKLASH YO'LLARINI IZLAYAPMIZ. TEZKOR ZAMONDA AKSARIMIZ QO'SHNING, MAHALLANING BOLASI U YOQDA TURSIN, O'Z DILBANDIMIZGA HAM YETARLI VAQT-U E'TIBOR AJRATA OLMAYAPMIZ. KO'PCHILIK OTA-ONALAR BOLASINING QAYOQQA, KIMNING OLDIGA, NIMA MAQSADDA KETAYOTGANINI HAR DOIM HAM SURISHTIRAVERMAYDI.

qo'yilgan mitti bola bir qalqib tushadi, yengilgina bolakay mashina tuyqus tormoz berib to'xtasa, oldinga munkib ketmasmikan deb joningiz halak, onasi oyna tomonga qarab, telefonda gaplashib ketyapti.

O'smir qizning qonsiz yuzlariga qarab sekin so'rayman: "Endi siz katta bo'lyapsiz. Oynning muayyan kunlarida og'ir yuk ko'tarmasligingiz kerak. O'sha kunlarni onangiz ham biladimi?". Qiz ayb ish qilganday yerga qaraydi: "Onamga aytishga uyalamam, bilmaydilar". Onasi bilmasa, jismoniy-asabiy zo'riqishdan asrash, gigiyenik tomondan alohida g'amxo'rlik qilish kerak bo'lgan paytlarda bu qizni kim himoyalaydi?

Atrofimizdagi voqea-hodisalarni kuzatib, mulohaza qilib, ayrim oilalarda onay u bola o'rtasidagi bu parda farzandlar dunyoga kelgan kunlardan shakllana boshlaganini his etasiz. Fikrim mubolag'a emas. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizdagi bir yarim yoshgacha, ya'ni ona sutli bilan oziqlanishi kerak bo'lgan go'daklarning yarmidan ko'pi sun'iy ovqatlar bilan boqiladi. "O'qishdan qolaman", "Ishlashim kerak", "Semirib ketishni istamayman", "To'y-u tadbirlarga borolmay qolaman" kabi sabablarni asos qilib, murg'aklarni hayotining dastlabki yillarida ona sutidan beharra qilayotganlar ko'payib boryapti.

Kechagina dunyoga kelgan, validasining issiq bag'ri, nafari, hidi, ovozi, sutiga tashna jannat gulini o'ringa yotqizib qo'yib, so'rg'ichdan oziqlantirgani ona o'zi bilan jonparchasi o'rtasida parda tortishni boshlagani emasmi?!

Ijtimoiy tarmoqda yoritilgan, xususiy bog'cha tarbiyachisi bilan enagasi to'rt yoshli bolaning og'ziga choyshab tiqib o'ldirib qo'ygunicha bo'lgan jarayonlarni qarang. Bola bog'chaning ovqatini yegisi kelmagan, yemagani uchun bog'cha opa jazolaydi.

yana xo'rlaydi, uradi, otadi. Ikki kishilashib unga jismoniy zulmlar qilgach, og'ziga latta tiqishib, otib yuborishgandan keyin bolajon hushidan, shu ko'yi yorug' dunyodan ketadi... It, mushukniyam ishonib topshirish mumkin bo'lmagan bunaqa "bog'cha opa"larni kim qanday bilim, tajribalariyu qaysi fazilatlariga qarab ishgah olgani boshqa og'riqli masala.

Yana mavzuga qaytsak. Siz qanday fikrdasiz, ammo men yuqorida tasvirlangan, sud jarayonida "bog'cha opa" o'zi iqror bo'lib aytib bergan qilmishlarini o'sha kuni birinchi marta qo'llaganiga ishonmayman. Bola shunday ma'sumki, uni sal turtib qo'ysangiz, qo'lingiz og'riydi. O'sha "temir opa" bolalarni, ayniqsa, ko'ngli tortmagan ovqatni yemagani, "o'tir", "tur", "yot", "uxla" degan buyruqlarini qo'ydekkina bo'lib bajarmagani uchun o'sha yuragi qaynoq polvonchani har kuni jazolagandir...

Chunki bir bolaga nisbatan bunaqa nafrat, vahshiylik bir kunda shakllanmaydi. "Bog'cha opa"ning iqrorlari ko'p yillik tajribasidan darak beradi. Endi... shunday vaziyat, muhita bola har kuni o'z ixtiyori, xohishi bilan o'ynab-kulib borgan deb aytish qiyin. Agar o'rtada parda bo'lmaganda, ovqatini yegisi kelmagan, uxlovmagani uchun kaltaklaydigan bog'chaga borganisi kelmasligini, u yerdagi voqealarni onasiga aytgan bo'lardi. Balki aytgandir... onaning endigi pushaymonlari foydasiz.

Dunyoda shunday bog' mavjud

"Bog'chaga bormayman!" deb yo'l-yo'lakay yig'lab ketayotgan o'g'il-qizlarni ko'p ko'rganmiz. Kimlar qo'lga shirinlik tutqazib, kimlar do'q-po'pisa bilan, kimlar har xil va'dalar bilan bolani alday, bog'cha eshigidan kiritib yuborgangiga xursand. Bular orasida ishlamaydigan, kun bo'yi uyda o'tiradigan onalar ham bor. Ular uy ishlarini xarxashasiz bajarib, dam olishlari, salon yoki o'tirishlarga bemalol borib kelishlari uchun... hatto ishtimalayotgan bolani dorisi bilan bog'cha opaga tashlab kelganlarini aytishdan uyalmaydi.

Maktabga o'z ixtiyori bilan borib, farzandining o'qishi, yurish-turishi haqida xabardor bo'lishni qo'ya turaylik, uch-to'rt oyda bir marta bo'ladigan ota-onalar yig'ilishida qatnashishdan zorlanadiganlar, bormaslik uchun bahona izlaydiganlar ozmi? Bolasi jim o'tirishi uchun soatlab telefon tutqazib qo'yadigan yoki farzandining yuz-ko'zlariga termilib o'tirib, uning rangi ro'yi, kayfiyati, nimalarga qiziqishini bilish uchun suhbatlashishdan ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on shov-shuvlar, tarbiyatsizlik maktabiga aylanib borayotgan sifatsiz seriallarga qul bo'lib qolayotganlar qancha... Ana o'shalar ertangi kunlarga suyanch, mehribon, moddiy-ma'naviy tomondan beminnat qo'llab-quvvatlovchi bo'lmog'i kutilgan farzandlaridan uzoqlashib bormayaptilarmi?

Farzandi kutilmaganda og'ir ahvolga tushib qolgan yoki nobud bo'lgan ota-onalar bunga sabab bo'lgan odamlarning qonunan jazo o'lishlarini istaydi. Tabiiy, jinoyat jazolanishi shart, jamiyat yana shunday noxushliklar takrorlanishidan himoya qilinishi kerak. Faqat... aybdorlarga berilgan jazo ota-onaning qalbidagi farzand dog'iga, armonu og'riqlarga hech qachon malham bo'lmaydi. Mol-u davlat, mansabni, hatto do'stu qadrdonlarni qayta topish mumkin, faqat maqolida aytilganidek, har bir bolaning o'rni boshqa. To'g'ri, taqdiri azalda nima borligini bilmaymiz. Ammo hadisi sharifda har qanday ishingay xayrli natijasini kutgan odam, avvalo, o'zi buning uchun zamin tayyorlab qo'yishi kerakligi aytilgan. Axir insonga aqlu farosat, ixtiyor bekorga berilmagan!

Yil fasllari yer yuzidagi bog'larning gullab, meva tugib, pishib yetilishi uchun xizmat qiladi. Bu yorug' dunyoda shunday bog' mavjud — u parvarish, e'tibor, mehribon muruvvat, muhabbatdan yashnab, tinmay gullab, ko'zlaringizga quvonch, jismingizga quvvat, qalbingizga nur, umringizga saodat tutadi. To'g'ri angladingsiz, bu — har bir ota-onaning o'z farzandlari bog'i. Jamiyatda, ikki dunyoda nasib etishi mumkin bo'lgan baxt-u iqbolimiz, nasib etishi mumkin bo'lgan savob-u bag'ri butunlik ham, avvalo, farzandlarimizning chiroyli taqdiri bilan bog'liq. Umr g'animat, hammamiz bir-birimizga g'animatmiz.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyaıı DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrız qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyaıı kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyaıı huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyaıı agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksı — 236. Buyurtma — G-946.
34830 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyaıı bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhih: Akbar Qarshiyeııv
Dizayner: Xurshid Abdullaııev

Manziliimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy